

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA INSONMANFAATLARINING O'RNI

Makarevskiy Artur Sergeyeovich

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi

3-kursantlar batalyoni ofitseri, kapitan

Annotatsiya: *Ushbu maqolada inson manfaatlari hamma narsadan ustun ekanligiva mamlakatimizda inson huquqlarini ta'minlash sohasida ulkan ishlar amalga oshirilayotganligi to'g'risida bayon etib o'tilgan. Yangi O'zbekistonni yaratishda inson manfaatlari nechog'lik ustun ekanligi, ham aholimiz uchun huquqlarini himoya qilishda qanchadan qancha qonun, farmon va qarorlar qabul qilinishi, hamda xalqimiz dardini eshitish va muommolarini hal etishda bir qancha idoralar tashkilotlar barpo etilganligi haqida aytib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *inson manfaatlari, xalq qabulxonasi, virtual qabulxonasi, siyosiy partiya, referendum.*

Insonni e'zozlash, uning huquq va erkinliklarini amalda ta'minlash—eng muhim va dolzarb masala hisoblanadi. Shu bois, mamlakatimizda inson huquqlarini ta'minlash sohasida ulkan ishlar amalga oshirilyapti. Negaki, O'zbekistondagi islohotlarning zamirida “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” degan hayotbaxsh g'oya mujassam. Ma'lumki, bundan qariyb 30 yil avval qabul qilingan. Asosiy qonunimiz inson manfaatlarini davlat manfaatlaridan ustuvor etib belgiladi. Buni biz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muqaddimasidanoq “O'zbekiston xalqi inson huquqlariga va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqligini tantanali ravishda e'lon qilib” degan so'zlardan boshlanishidan ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa Asosiy qomusimizning 13-moddasida “O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi” deb mustahkamlanishi davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar faoliyatining asosiy maqsadi va yo'nalishlarini yaqqol ifoda etdi. Asosiy qomusimiz 128 moddadan iborat bo'lgani holda uning 30 dan ortiq moddalari bevosita inson huquqlari va erkinliklariga bag'ishlangandir. Konstitutsiyamiz Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining deyarli barcha prinsipial qoidalarini o'zida mujassamlantirgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat inson huquqlari bo'yicha bir qator majburiyatlar olgan bo'lib, ularga xususan davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini

ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshirishi, davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'ul ekanliklari, O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlashi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratishi, O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlashi kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Davlat inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat ekanligidan kelib chiqib, o'tgan yillar mobaynida insonning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini ta'minlash maqsadida bir qator ishlarni amalga oshirdi. Xususan, shaxsiy huquqlarni ta'minlash va himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslari, "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida", "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida", "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida", "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida", "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida" gi kabi qonunlarni qabul qildi.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etishdek siyosiy huquqlarini ta'minlash maqsadida esa "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasining referendumini to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida", "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida", "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida", "Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida" gi qonunlar qabul qilindi. "O'zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to'g'risida", "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida" "Kasaba uyushmalari, ularning huquqlari va faoliyatining kafolatlari to'g'risida", "Siyosiy partiyalar to'g'risida", "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida" gi kabi qonunlar esa O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish, davlat organlari bilan hamkorlik qilish huquqlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qilmoqda. "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida" gi Qonun esa har bir shaxsning bevosita o'zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilishdek konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga

xizmat qilib, ayniqsa murojaatni berish shakli sifatida elektron murojaatni nazarda tutganligi fuqarolar og'irini yengil qilishga jiddiy xissa qo'shdi. Ayniqsa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrda Farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi, joylarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni tarkibiy tuzilmasida Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni nazorat qilish va muvofiqlashtirish xizmati tuzilganligi bu boradagi ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga chiqardi.

Mustaqillik yillarida qabul qilingan qonunlarning aksariyati insonning iqtisodiy huquqlarini ta'minlash va muhofaza qilishga bag'ishlangan. Taraqqiyotimiz yo'lida mustahkam poydevor bo'lgan, mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining salmoqli foizini ishlab chiqarayotgankichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida hozirgi vaqtda ish bilan band aholimizning aksariyati mehnat qilayotganligini e'tiborga oladigan bo'lsak, bu qarorning naqadar to'g'ri va tabiiy ekanligini tushunib yetishimiz mumkin. Ayniqsa har bir shaxsning mulkdor bo'lishga oid konstitutsiyaviy huquqi judayam mustahkam muhofaza qilinib, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida", "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida", "Bank siri to'g'risida", "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida", "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida", "Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risida", "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi kabi qonunlarda batafsil tartibga solingan. Qayd etish joizki, agar biz soha rivoji uchun mustahkam konunchilik va huquqiy bazani shakllantirmaganimizda va muntazam takomillashtirib bormaganimizda, xususiy mulkka davlat siyosati darajasida e'tibor qaratmaganimizda vaziyat nechog'lik achinarli bo'lishi hech kimga sir emas, albatta.

Asosiy qomusimiz insonning ijtimoiy huquqlariga ham katta e'tibor qaratgan bo'lib, ayniqsa mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash, ishsizlikdan himoyalash, dam olish, ijtimoiy ta'minot olish kabi huquqlarni alohida konstitutsiyaviy darajada e'tirof etgan. Ushbu huquqlarni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida", "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida", "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida", "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish

to'g'risida", "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida", "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida" kabi qonunlar qabul qilingan. Mamlakatimizda 2010 yildan "Ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dastur"larini parlament tomonidan tasdiqlash va uni ijrosini nazorat qilish, bu bo'yicha har yili mas'ul vazirni axborotlarini eshitish amaliyoti shakllandi. Konstitutsiyamizda inson salomatligi kabi bebaho ne'matga maxsus to'xtalinib, har bir insonning malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi qayd etilgan. Ushbu konstitutsiyaviy normani amalda to'laqonli ro'yobga chiqarish maqsadida "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida", "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida", "Aholini sil kasalligidan muhofaza qilish to'g'risida", "Aholi o'rtasida mikronutriyent yetishmasligi profilaktikasi to'g'risida", "Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to'g'risida", "Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infeksiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish to'g'risida" kabi qonunlar qabul qilindi.

Ma'lumki, har qanday jamiyat va davlat taraqqiyotining eng muhim shartlaridan biri—bu ta'lim sifati hisoblanadi. Shu bois ham Asosiy qonunimizda har kim bilim olish huquqiga egaligi, bepul umumiy ta'lim olish, ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqlari davlat tomonidan kafolatlanishi belgilab qo'yildi. Shu maqsadda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, 2004 yilda tasdiqlangan Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy dasturi qabul qilindi. Konstitutsiya nafaqat huquq va erkinliklarni mustahkamladi, balki ularni amalga oshirishning real imkoniyatlarini ta'minlash chora-tadbirlarini, kafolatlarini ham yaratdi. Xususan, hokimiyatlar bo'linishi, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi so'zsiz tan olinishi, demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinishi, har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kabilar kafolatlandi. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsiz deb e'lon qilinib, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas, deb belgilab qo'yildi.

Inson huquq va erkinliklarini ishonchli ravishda ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Fuqarolik, Fuqarolik-protsessual, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslari, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida", "Sudlar to'g'risida", "Advokatura to'g'risida", "Prokuratura to'g'risida",

“Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to‘g‘risida”gi kabi qonunlar qabul qilindi. Inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash davlat organlari faoliyatining asosiy vazifalari sifatida qayd etildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafili hisoblanadi, fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish Vazirlar Mahkamasi konstitutsiyaviy vakolatlaridan birini tashkil etadi. «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonunga ko‘ra esa sud fuqarolarning huquq va erkinliklarini sud yo‘li bilan himoya qilishga da‘vat etilgan.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan norma va prinsiplar demokratik huquqiy davlat qurish, inson huquq va erkinliklarini ta‘minlashda muhim dasturulamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Nafaqat qabul qilingan, balki hozirgi kunda tayyorlanayotgan, qabul qilinishi kutilayotgan «Jamoatchilik nazorat to‘g‘risida», «Ma‘muriy tartib-taomillar to‘g‘risida», “Davlat boshqaruvi asoslari to‘g‘risida”, “Yarashtiruv jarayonlari (mediatsiya) to‘g‘risida”, “Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta‘minlash to‘g‘risida”, “Mehnat migratsiyasi to‘g‘risida”, “Aholi bandligiga ko‘maklashish nodavlat tashkilotlari (rekruting agentliklari) to‘g‘risida” gi qonunlar ham Konstitutsiyamiz ko‘zda tutgan–inson manfaatlariga yo‘naltirilgandir. Fikrimizcha, erishilgan bunday marralar biz o‘z oldimizga qo‘ygan yuksak maqsadga qaratilgan uzoq va murakkab yo‘lning bir qismi, Konstitutsiyamizda nazarda tutilgan g‘oyalar esa demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sari to‘xtovsiz harakat qilishni, buning uchun esa Asosiy qomusimizda belgilangan barcha ezgu g‘oyalarni to‘laqonli ro‘yobga chiqarish uchun uni yanada sinchkovlik bilan o‘rganishimiz, inson manfaatlarini ta‘minlash nuqtai nazaridan qonunchiligimizni muttasil takomillashtirib borishimiz, har birimiz o‘z harakatlarimizni qanchalik Konstitutsiya doirasida amalga oshirayotganligimizni muntazam idrok etib borishimiz darkor.

- darajalarini nazorat qilib borish, ushbu jarayonni ota-onalar ham internet tarmog‘i orqali kuzatib borish tizimini yaratish;

Ushbu tizimni yaratilishi maktablarda o‘qiluvchilarning dars mashg‘ulotlarini o‘tish saviyasini kuzatib borish bilan bir qatorda ota-onalarning farzandlarini ham dars mashg‘ulotlarini o‘zlashtirish jarayonidan xabardor bo‘lib borishlarini ta‘minlaydi. Respublikamizdagi umumta‘lim maktabi bitiruvchilariga ta‘lim yakuni bo‘yicha barcha fanlarni o‘zlashtirilganlik natijasida mamlakatimizni rivojlantirishga ta‘sir qiladigan

kichik innovatsion ixtiro nazariyasini taqdim etish va ushbu innovatsion nazariyalarni respublika miqyosida bo'lib, ushbu nazariyalarni yaratgan maktab bitiruvchilarini OTM larga imtiyozlar asosida qabul qilinishi tizimini joriy etish.

Bu tizim ham maktab bitiruvchilarining 11 yil davomida olgan ta'limlarini majmuasi sifatida o'zlarining ilk innovatsion ixtirochiligiga qadam qo'yishiga sabab bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida".- Toshkent. O'zbekiston, 2011-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi- 2020-yil.
3. Kun.uz internet sayti. 2019-yil.
4. Ziyonet.uz internet sayti. 2020-yil.
5. I.SH.M. Mirziyoyev—"Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarita`minlash yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi" 2017.
6. A.X. Saidov "Inson huquqlari umumiy nazariyasi" 2012.
7. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.
8. Elektron manba:
9. geogle.uz
10. ziyoNET.uz
11. lex.uz